



**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**


# **SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**

**2023- YIL YANVAR-  
SENTABR**



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

**11 009,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,1 %** ni tashkil etdi.

**Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)**  
**O'sish sur'ati (% da)**

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2019- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	11 009,9	100,0	109,1
Termiz sh.	3 131,8	28,5	108,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	444,5	4,0	108,8
Angor	467,9	4,3	107,8
Boysun	344,1	3,1	109,1
Bandixon	245,9	2,2	108,3
Muzrabot	482,9	4,4	108,1
Denov	1 421,9	12,9	110,6
Jarqo'rg'on	600,9	5,5	107,0
Qumqo'rg'on	650,1	5,9	106,0
Qiziriq	410,2	3,7	109,4
Sariosiyo	659,3	6,0	109,6
Termiz	512,4	4,7	111,1
Uzun	455,0	4,1	108,2
Sherobod	587,0	5,3	109,5
Sho'rchi	596,0	5,4	113,3

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 886,8 ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-sentabr)


	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3886,8</b>	<b>106,5</b>
Termiz sh.	15825,1	105,4
Oltinsoy	2344,7	106,4
Angor	3304,3	105,4
Boysun	2800,2	107,0
Bandixon	3013,3	105,5
Muzrabot	3185,1	105,8
Denov	3437,9	107,9
Jarqo'rg'on	2563,6	104,4
Qumqo'rg'on	2584,8	103,6
Qiziriq	3353,9	107,1
Sariosiyo	2936,6	107,2
Termiz	6159,1	108,2
Uzun	2459,5	105,8
Sherobod	2823,5	107,2
Sho'rchi	2648,7	110,7

# Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



**2022- yil yanvar-sentabr** oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-sentabr** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **1043,3** mlrd. soʻmga oshib, **7006,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **63,6 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **16,0 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror oʻsishiga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. soʻmda)

### Surxondaryo viloyati- 7006,6

Termiz sh – 1 393,7

Denov – 863,3

Sariosiyo – 443,0

Jarqoʻrgʻon – 442,7

Sherobod – 437,2

Shoʻrchi – 423,1

Qumqoʻrgʻon – 419,3

Muzrabot – 386,8

Angor – 356,0

Oltinsoy – 346,3

Uzun – 342,3

Termiz – 338,8

Qiziriq. – 333,5

Boysun – 274,9

Bandixon – 205,7


Xizmatlar sohasida band boʻlgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **19,9** foiz yoki **1 393,7** mlrd. soʻm Termiz shahriga toʻgʻri keldi.



## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>11 009,9</b>	<b>100,0</b>	<b>109,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	557,0	5,1	126,1
Moliyaviy xizmatlar	2 451,8	22,3	116,5
Transport xizmatlari	1 632,2	14,8	110,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 460,1	13,3	101,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	348,6	3,2	104,9
Savdo xizmatlari	3 832,6	34,8	104,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	269,4	2,4	104,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	569,9	5,2	117,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	146,5	1,3	104,9
Ijara xizmatlari	200,9	1,8	95,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	276,1	2,5	100,2
Shaxsiy xizmatlar	322,7	2,9	106,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	163,2	1,5	98,4
Boshqa xizmatlar	239,0	2,2	100,5

## Moliyaviy xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)




2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **533,8** mlrd. so'mga oshib, **2 451,8** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,3** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **116,5** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **94,1** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **46,2** foizni yoki **1 133,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **114,8** % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
Surxondaryo viloyati	94,1	3,6	2,3
Termiz sh	86,6	9,9	3,5
Oltinsoy	100,0		
Angor	99,8		0,2
Boysun	100,0		
Bandixon	100,0		
Muzrabot	100,0		
Denov	99,2		0,8
Jarqo'rg'on	99,9		0,1
Qumqo'rg'on	100,0		
Qiziriq	99,8		0,2
Sariosiyo	97,0		3,0
Termiz	99,9		0,1
Uzun	100,0		
Sherobod	100,0		
Sho'rchi	100,0		

## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi


(mlrd. so'mda)





## Transport xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1 632,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 738 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 4,3 % ini tashkil etdi. Ulardan 728 birlik (86,2 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

### Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023- yil yanvar-sentabr)



# Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



**2023- yil yanvar-sentabr** oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,3%** ni tashkil etdi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.


**2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 460,1** mlrd. so'mga yetdi.



Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **66,0 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko'rsatkich **67,5 %** ni tashkil etgan.


## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



## Savdo xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

**2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida savdo xizmatlari hajmi **515,3** mlrd. soʻmga oshib, **3 832,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **104,2 %** ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlar orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



**2023- yilning 1- oktabr** holatiga koʻra, xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **47,9 %** yoki **8,2** ming birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **89,2 %** (**8,2** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar


2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **83,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Surxondaryo viloyati	4,5	12,5	83,0
Termiz sh	5,8	17,3	76,9
Oltinsoy	3,8	6,4	89,8
Angor	3,7	3,5	92,8
Boysun	4,0	1,9	94,1
Bandixon	4,1	0,4	95,5
Muzrabot	2,9	34,3	62,8
Denov	5,9	18,1	76,0
Jarqo'rg'on	4,3	4,3	91,4
Qumqo'rg'on	4,4	3,0	92,6
Qiziriq	3,3	21,9	74,8
Sariosiyo	4,0	13,1	82,9
Termiz	4,2	7,3	88,5
Uzun	4,0	2,7	93,3
Sherobod	3,7	17,0	79,3
Sho'rchi	3,3	5,1	91,6

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



**2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **557,0** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,1** % ni tashkil etdi.




**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- oktabr** holatiga ko'ra, «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **0,3** ming birlikka yetdi, shundan **0,3** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-sentabr)



	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʻati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	557,0	100,0	126,1
Termiz sh	72,0	12,9	161,2
Oltinsoy	34,4	6,2	112,2
Angor	26,5	4,8	133,1
Boysun	23,8	4,3	133,4
Bandixon	14,9	2,7	132,7
Muzrabot	27,3	4,9	126,1
Denov	75,9	13,5	117,8
Jarqoʻrgʻon	42,1	7,6	122,8
Qumqoʻrgʻon	44,8	8,0	123,2
Qiziriq	22,1	4,0	117,3
Sariosiyo	40,8	7,3	112,8
Termiz	19,4	3,5	122,5
Uzun	33,8	6,1	119,7
Sherobod	38,0	6,8	128,0
Shoʻrchi	41,2	7,4	129,2

<sup>1</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2019- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan Termiz shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **27,1** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **72,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **161,2** % ni tashkil etdi.


Bandixon tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **14,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

# Telekommunikatsiya xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



**2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **522,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **124,6 %** ni tashkil etgan.



bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video maʼlumotlarni uzatish **Telekommunikatsiya xizmatlari** kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

**Surxondaryo viloyati. – 522,4** (2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. soʻmda)

Denov – 73,7	Oltinsoy – 34,0
Termiz sh – 46,7	Uzun – 33,3
Qumqoʻrgʻon – 44,3	Muzrabo – 27,0
Jarqoʻrgʻon – 41,7	Angor – 25,3
Shoʻrchi – 40,5	Boysun – 22,9
Sariosiyo – 39,7	Qiziriq – 21,8
Sherobod – 37,6	Termiz – 19,1
	Bandixon – 14,8


<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2023- yil yanvar-sentabr)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>557,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
<b>AKT xizmatlari sektori</b>	<b>543,8</b>	<b>97,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Telekommunikatsiya xizmatlari	522,4	96,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	21,4	3,9
<b>Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori</b>	<b>13,2</b>	<b>2,4</b>
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	8,4	63,6
Kino - videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,9	7,8
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	1,0	7,6
Boshqa axborot xizmatlari	2,9	21,0





**2023- yil yanvar-sentabr** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **569,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,6 %** ni tashkil etdi.




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-sentabr** oylarida ularning ulushi **5,2 %** ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





2023- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 146,5 mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 440 birlikni tashkil etdi, shundan 364 birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

**2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **70,3** mlrd. so'mga oshib, **348,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


**2023- yilning 1- oktabr** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 511** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 503** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-sentabr)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)



**2023-yilning yanvar-sentabr** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **269,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,8 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

### Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar- sentabr, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati.	269,4	Qumqo'rg'on	13,7
Termiz sh.	53,1	Qiziriq	13,6
Denov	29,0	Uzun	13,1
Angor	23,8	Boysun	11,7
Jarqo'rg'on	23,1	Oltinsoy	11,4
Sho'rchi	18,0	Termizt	11,0
Sariosiyo	16,5	Muzrabot	10,6
Sherobod	14,3	Bandixon	6,5

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Me'morchilik sohasidagi xizmatlar


(2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

### 2023- yilning yanvar-sentabr

o'ylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **163,2** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,5 %** ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **98,4 %** ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


**Surxondaryo viloyati – 163,2**

(2023- yil yanvar-sentabr mlrd. so'mda)

Termiz sh. – 130,7	Jarqo'rg'on – 1,6
Denov – 8,5	Muzrabot – 1,6
Termiz – 6,4	Boysun – 1,4
Sherobod – 2,5	Sho'rchi – 1,3
Angor – 1,9	Uzun – 1,2
Qumqo'rg'on – 1,8	Qiziriq – 1,1
Sariosiyo – 1,6	Oltinsoy – 1,0
	Bandixon – 0,6

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

## Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-sentabr)



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **276,1** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,2** % ni tashkil etdi.



### Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-sentabr)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalari (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.



## Ijara xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-sentabr)

**2023- yilning yanvar-sentabrga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **4,3** mlrd. so'mga oshib, **200,9** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,8** % ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-sentabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **102,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi



Tel.: 76 225-65-91